

---

# 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 33 yilligi bilan tabriklayman

**Assalomu alaykum qadrli ustozlar, hurmatli hamkasblar, aziz talabalar!**

Barchangizni xalqimiz va yurtimiz uchun muhim bo'lgan kun, ya'ni **14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni** hamda **O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 33 yilligi bilan tabriklayman.**

Akademik litsey jamoasi ham mamlakatimiz mudofaasini kuchaytirish, yosh avlodni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'lida e'tirofga sazovor faoliyat olib bormoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Vatan himoyachilari kuni – bu nafaqat harbiylarimiz bayrami, balki o'z hayotini xalqimiz baxt-u iqboli va Vatanimiz ravnaqi yo'lga bag'ishlagan barcha insonlarga ehtirom ko'rsatadigan muhim kundir. Ularning mardligi va jasorati biz uchun, farzandlarimiz uchun har doim namuna bo'lib qoladi.

**Shu munosabat bilan barchangizga mustahkam sog'lik, oilaviy baxt, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi yo'lidagi ishlaringizga muvaffaqiyatlar tilayman.**

Hurmat bilan,

SamDCHTI AL ijrochi direktori D.Islomov